



Qurilish, uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida
kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha
tarmoq kengashi

Qurilish materiallari sanoati

TARMOQ MALAKA RAMKASI



TOSHKENT - 2026

“Qurilish materiallari sanoati” tarmoq malaka ramkasi 2025-yil 18-dekabrdagi Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Tarmoq malaka ramkasi shakli” va Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrdagi 55-son buyrug’i bilan tasdiqlangan “Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga asosan Qurilish, uy-joy kommunal xo’jaligi sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

TARMOQ MALAKA RAMKASI

Reyestr raqami:

UZ-TMR-2026-T1.0-022



1. Umumiy talablar va asosiy tushunchalar

Ushbu Tarmoq malaka ramkasi O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasi va Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025)ga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, Qurilish materiallari sanoati tarmog'i bo'yicha sakkizta malaka darajasini tarmoqda qo'llaniladigan bilim, ko'nikma (mahorat), mas'uliyat va mustaqillik xususiyatiga qarab tasniflaydi.

Tarmoq malaka ramkasi Qurilish materiallari sanoati tarmog'ida malaka darajalarining yagona shkalasini belgilaydi malakaning qiyoslanishini ta'minlaydi, kasbiy standartlar va mutaxassislar malakasini muvofiqligini tasdiqlash hamda ularning malakasini tan olish tizimi uchun asos hisoblanadi.

Qurilish materiallari sanoati yo'nalishi bo'yicha Tarmoq malaka ramkasining asosiy maqsadi Qurilish materiallari tarmog'ida malaka darajalarining tizimlashtirilgan tavsifini, iqtisodiyotning istiqbollari va ustuvor yo'nalishlarini hamda tarmoqning strategik rivojlanishini hisobga olgan holda Milliy malaka ramkasi asosida mavjud malakaga qo'yilgan talablarni shakllantirishdan, shuningdek, Tarmoqlararo kompetensiyalar va turdosh mashg'ulotlar (malaka) turlarini ko'rsatgan holda kasblar va lavozimlarni malaka darajalari bo'yicha xaritalashdan iborat.

Tarmoq malaka ramkasining vazifasi kasbiy standartlarni ishlab chiqish uchun Qurilish materiallari tarmog'idagi joriy va istiqbolli texnologiyalarni hisobga olgan holda ishchilarning funksional xatti-harakatlari, ko'nikmalari, qobiliyatlari va bilimlariga qo'yiladigan talablarni aniqlashdan iborat.

Bundan tashqari, sohani muntazam monitoring qilish asosida tarmoq malaka hamda bilimlarga bo'lgan ehtiyojlar va tendensiyalarini aniqlash, tarmoq malaka doiralarini ishlab chiqish va joriy etish va takomillashtirish hamda kasbiy standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchi tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish, norasmiy va informal o'qitishning natijalarini tan olish, validatsiya va akkreditatsiya (sertifikatlash) qilish tizimini shakllantirish, shu jumladan, sohaga tegishli malakani baholash markazlari faoliyatini tashkil qilish, yoshlarni kasbga yo'naltirish va axborot materiallarini ishlab chiqish ishlarini tashkil etish, tarmoq malaka doiralari va kasbiy

standartlardan kelib chiqqan holda, sohaga yangi kirib kelayotgan kasblarni kiritish va amaliyotga joriy etish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish ustuvor maqsad va vazifalar hisoblanadi.

Mazkur Tarmoq malaka ramkasida quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

guruh – Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT (2.1-tahrir) bo'yicha iqtisodiy faoliyatning keng sohasini o'z ichiga olgan faoliyat turi;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

kichik sinf – sinf ichidagi faoliyatning aniq turlarini ifodalovchi faoliyat turi;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi — kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

sinf – guruh ichida iqtisodiy faoliyatning o'rtacha darajada (tor doirada) aniqlangan turlarini ifodalovchi faoliyat turi.

Tarmoq malakalar ramkasini ishlab chiqishda foydalanilgan asosiy normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasi 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida" Qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktyabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 158-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 24-iyuldagi PQ-927-sonli "Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hamda o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 30-sentyabrdagi PQ-345-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4335-son qarori;

Tarmoq kengashi faoliyatiga taalluqli qarorlari asosida amalga oshiradi.

2. Tarmoq malaka ramkasining pasporti

Qurilish materiallari sohasi yuqori qo'shilgan qiymatli qurilish mahsulotlarini ishlab chiqarish, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, shuningdek, ixtisoslashgan yetakchi xorijiy kompaniyalar bilan qo'shma ishlab chiqarishlarni tashkil etish bo'yicha yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni o'zlashtirish uchun investitsiyalar, birinchi navbatda, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish asosida faoliyat yurituvchi tarmoqdir.

Soha mamlakatimizda qurilish sohasining jadal rivojlanishi va aholi ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda talab etilayotgan yuqori sifatli qurilish materiallari ishlab chiqarish turlarini izchil ravishda kengaytirish, ichki bozorni import o'rnini bosuvchi, xalqaro standartlarga mos va raqobatbardosh mahsulotlar, shuningdek mahalliy xomashyo asosida ishlab chiqarilgan zamonaviy qurilish mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Shuningdek, mazkur soha qurilish materiallari eksporti geografiyasini kengaytirish bo'yicha o'z a'zolariga amaliy yordam ko'rsatish, kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish kabi yo'nalishlarni qamrab oladi.

Shu bilan birga, qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish va muvofiqlashtirish, tarmoq korxonalari faoliyatini birlashtirish;

davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etish, normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqishda takliflar kiritish;

tarmoqni modernizatsiya qilish, energiya tejamkor va innovatsion texnologiyalarni joriy etish

investitsiya loyihalarini tayyorlash va amalga oshirishga ko'maklashish, mahalliy va xorijiy investorlarni jalb etish;

qurilish materiallari sifati va raqobatbardoshligini oshirish, standartlar va texnik reglamentlarga rioya etilishini qo'llab-quvvatlash;

eksport salohiyatini kengaytirish, tashqi bozorlarga chiqishda korxonalarga yordam berish;

xomashyo bazasidan oqilona foydalanish va yangi turdagi materiallar ishlab chiqarishni rivojlantirish kabi bir qator asosiy vazifalarni bajarish nazarda tutilgan.

Qurilish materiallari sohasidagi tarmoq malaka ramkasi quyidagi iqtisodiy faoliyat turlari uchun ishlab chiqilgan:

C-seksiya ishlab chiqaradigan sanoat

O'zbekiston Respublikasida qurilish materiallari sohasidagi TMR Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT-2.1)ga muvofiq quyidagi iqtisodiy faoliyat turlarini qamrab oladi:

T/r	Seksiya	Boʻlim	Guruh	Sinf	Kichik sinf
1.	C seksiya ishlab chiqaradigan sanoat	23 Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	23.0 Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	23.00 Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	23.00.0 Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish
2.			23.1 Shisha va shishadan buyumlar ishlab chiqarish;	23.11 Listlangan shisha ishlab chiqarish;	23.11.0 Listlangan shisha ishlab chiqarish;
3.				23.12 Listlangan shishani qoliplash va ishlov berish;	23.12.0 Listlangan shishani qoliplash va ishlov berish;
4.				23.13 Kovak shisha buyumlar ishlab chiqarish;	23.13.0 Kovak shisha buyumlar ishlab chiqarish;
5.				23.14 Shisha tola ishlab chiqarish;	23.14.0 Shisha tola ishlab chiqarish;
6.				23.19 Boshqa shisha buyumlarni, jumladan texnik buyumlarni, ishlab chiqarish va ishlov berish;	23.19.0 Boshqa shisha buyumlarni, jumladan texnik buyumlarni, ishlab chiqarish va ishlov berish;
7.			23.2 Oʻtga chidamli buyumlar ishlab chiqarish;	23.20 Oʻtga chidamli buyumlar ishlab chiqarish;	23.20.0 Oʻtga chidamli buyumlar ishlab chiqarish;
8.			23.3 Loydan qurilish materiallari ishlab chiqarish;	23.31 Loydan qurilish materiallari ishlab chiqarish;	23.31.0 Loydan qurilish materiallari ishlab chiqarish;
				23.32 Gʻisht, cherepitsa va pishirilgan loydan boshqa qurilish materiallari ishlab chiqarish;	23.32 Gʻisht, cherepitsa va pishirilgan loydan boshqa qurilish materiallari ishlab chiqarish;
9.			23.4 Boshqa chinni va keramik buyumlar ishlab chiqarish;	23.41 Maishiy va dekorativ keramik buyumlar ishlab chiqarish;	23.41.0 Maishiy va dekorativ keramik buyumlar ishlab chiqarish;
10.				23.42 Keramikadan gigiyenik sanitariya-texnika buyumlari ishlab chiqarish;	23.42.0 Keramikadan gigiyenik sanitariya-texnika buyumlari ishlab chiqarish;
	11.	23.43 Keramik izolyatsiyalovchi		23.43.0 Keramik izolyatsiyalovchi	

				materiallar va garnituralar ishlab chiqarish;	materiallar va garnituralar ishlab chiqarish;
12.				23.44 Boshqa texnik keramik buyumlar ishlab chiqarish;	23.44.0 Boshqa texnik keramik buyumlar ishlab chiqarish;
13.				23.49 Boshqa keramik buyumlar ishlab chiqarish;	23.49.0 Boshqa keramik buyumlar ishlab chiqarish;
14.			23.5 Sement, ohak va suvoq ishlab chiqarish;	23.51 Sement ishlab chiqarish;	23.51.0 Sement ishlab chiqarish;
15.				23.52 Ohak va qurilish uchun gips ishlab chiqarish;	23.52 Ohak va qurilish uchun gips ishlab chiqarish;
16.				23.61 Betondan qurilish uchun buyumlar ishlab chiqarish;	23.61.0 Betondan qurilish uchun buyumlar ishlab chiqarish;
17.				23.62 Qurilish maqsadlariga mo'ljallangan gips buyumlar ishlab chiqarish;	23.62.0 Qurilish maqsadlariga mo'ljallangan gips buyumlar ishlab chiqarish;
18.			23.6 Beton, gips va sementdan buyumlar ishlab chiqarish;	23.63 Tayyor beton ishlab chiqarish;	23.63.0 Tayyor beton ishlab chiqarish;
19.				23.64 Quruq beton qorishmalari ishlab chiqarish;	23.64.0 Quruq beton qorishmalari ishlab chiqarish;
20.				23.65 Tolali sement ishlab chiqarish;	23.65.0 Tolali sement ishlab chiqarish;
21.				23.69 Beton, qurilish gipsi va sementdan boshqa buyumlar ishlab chiqarish;	23.69.0 Beton, qurilish gipsi va sementdan boshqa buyumlar ishlab chiqarish;
22.			23.7 Toshni kesish, ishlov berish va pardoqlash;	23.70 Toshni kesish, ishlov berish va pardoqlash;	23.71 Toshni kesish, ishlov berish va pardoqlash;
23.			23.9 Boshqa toifalarga kiritilmagan abraziv buyumlar va boshqa nometall	23.91 Abraziv buyumlar ishlab chiqarish;	23.91.0 Abraziv buyumlar ishlab chiqarish;
24.				23.99 Boshqa toifalarga kiritilmagan	23.99.0 Boshqa toifalarga kiritilmagan

			mineral mahsulotlar ishlab chiqarish;	nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish;	nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish;
25.			24.0 Metallurgiya sanoati	24.00 Metallurgiya sanoati	24 00.0 Metallurgiya sanoati
26.		24 Metallurgiya sanoati	24.2 Po'lat quvur, quvuro'tkazgich, profil, fittinglar ishlab chiqarish.	24.20 Po'lat quvur, quvuro'tkazgich, profil, fittinglar ishlab chiqarish;	24.20.0 Po'lat quvur, quvuro'tkazgich, profil, fittinglar ishlab chiqarish;

Tarmoq malaka ramkasi quyidagi kasbiy faoliyat turlari va mashg'ulotlar guruhlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

T/r	Mashg'ulot guruhi kodi	Mashg'ulot guruhi nomi
1.	14390	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan boshqa soha xizmatlari rahbarlari, b.g.k.
2.	31152	Ishlab chiqarishni tashkil etish va avtomatlashtirish bo'yicha texnik
3.	31151	Texnik-mexaniklar (umumiy)
4.	31159	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan texnik-mexaniklar, b.g.k.
5.	31330	Kimyoviy xomashyoni qayta ishlash jarayonlari bo'yicha nazoratchilar
6.	44199	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan ofis xodimlari, b.g.k.
7.	51510	Xo'jalik ishlarini yuritish bo'yicha yordamchilar va ekonomkalar
8.	71120	G'isht teruvchilar
9.	71130	Sangtaroshlar
10.	72111	Qoliplovchilar
11.	72242	Materiallarni silliqlovchilar
12.	73139	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan zargarlik buyumlari va qimmatbaho metall buyumlari ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan ishchilar, b.g.k.
13.	73159	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan shishani qoliplovchilar, naqqoshlar, silliqlovchilar va sayqallovcilar, b.g.k.
14.	73163	Dekorativ ishlov beruvchilar
15.	81121	Rudaga ishlov berish va boyitish operatorlari
16.	81122	Tog' jinslariga ishlov berish va boyitish operatorlari
17.	81132	Konchilik sanoatida burg'ilovchilar va turdosh kasblar ishchilari
18.	81149	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan beton, sement va boshqa mineral materiallardan mahsulot tayyorlash dastgohlari operatorlari, b.g.k.
19.	81141	Yig'ma temir-beton konstruksiyalarini ishlab chiqarish operatorlari
20.	81142	Asbestotsement buyumlarini ishlab chiqarish operatorlari
21.	81144	Beton-nasoslar va beton aralashtirgichlar operatorlari
22.	81211	Ruda va metalni qizdirish pechlari operatorlari
23.	81219	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan metall eritish uskunalari xizmat ko'rsatish va metalga termik ishlov berish uskunalari ishchilari (operatorlari), b.g.k.

24.	81319	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan kimyoviy xomashyoni, neft va neft mahsulotlarini, boshqa metall bo'lmagan mineral mahsulotlarni qayta ishlash zavodlariga xizmat ko'rsatuvchi operatorlar, apparatchilar va turdosh kasb ishchilari, b.g.k.
25.	81320	Fototexnika mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun asbob-uskunalariga xizmat ko'rsatuvchi operatorlar, apparatchiklar va shunga o'xshash kasb egalari
26.	81420	Plastmassa ishlab chiqarish uskunalariga xizmat ko'rsatuvchi operatorlar
27.	81607	Oziq-ovqatni termik va mexanik ishlash operatorlari
28.	81720	Yog'ochni qayta ishlash uskunalariga xizmat ko'rsatish bo'yicha operatorlar
29.	81811	Shisha qizdirish pechlari operatorlari
30.	81814	Shisha buyumlar ishlab chiqarish operatorlari
31.	81815	Keramika, chinni va fayans buyumlar ishlab chiqarish operatorlari
32.	81819	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan shisha va keramika ishlab chiqarish uskunalariga xizmat ko'rsatuvchi operatorlar, b.g.k.
33.	81121	Rudaga ishlov berish va boyitish operatorlari
34.	81829	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan bug' dvigatellari va qozonxonalarning operatorlari, b.g.k.
35.	83431	Kran va ko'tarish mashinalari operatorlari
36.	83432	Ortish-tushirish va transport qurilmalari operatorlari
37.	81319	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan kimyoviy xomashyoni, neft va neft mahsulotlarini, boshqa metall bo'lmagan mineral mahsulotlarni qayta ishlash zavodlariga xizmat ko'rsatuvchi operatorlar, apparatchilar va turdosh kasb ishchilari, b.g.k.

3. Tarmoq tahlili

Ma'lumki, "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi sohada raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport qilishning barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli ishlarni amalga oshirilmogda, shuningdek, yuqori texnologiyali, energiya tejamkor qurilish materiallarini ishlab chiqarish bo'yicha ko'plab loyihalarni jalb qilib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qurilish materiallari sanoatini tubdan takomillashtirish va kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019-yil 20-fevraldagi PQ-4198-sonli qarori muvofiq hamda ta'sis shartnomasi va Uyushma ta'sischilarining 2019-yil 20-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Qurilish materiallari sanoati korxonalari uyushmasini tashkil etish to'g'risida"gi qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Qurilish materiallari sanoati korxonalari uyushmasi tashkil etilgan.

Uyushmaning rasmiy to'liq nomi "O'zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalari uyushmasi" va qisqartirilgan nomi "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi.

Uyushma qurilish materiallarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi va bunga tegishli xizmat ko'rsatuvchi korxona (jamiyat) va tashkilotlarni birlashtiradi.

Quyidagi yuridik shaxslar Uyushmaning tarkibi va asosiy ta'sischilari hisoblanadi:

"Qizilqumsement" aksiyadorlik jamiyati – Navoiy viloyati, Navoiy shahar hokimligi huzuridagi tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyasi tomonidan 2014-yil 11-iyul kuni ro'yxatga olingan, reyestrda tartib raqami 76-son, manzili: Navoiy viloyati, Navoiy-3;

"Kvars" aksiyadorlik jamiyati – Farg'ona viloyati Quvasoy shahri Davlat xizmatlari markazi tomonidan 2018-yil 20-iyulda ro'yxatga olingan, reyestrda tartib raqami 001-son, manzili: Farg'ona viloyati Quvasoy shahri, Mustaqillik ko'chasi, 2a-uy;

"Bekobodsement" aksiyadorlik jamiyati – Toshkent viloyati, Bekobod shahar hokimligi huzuridagi tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyasi tomonidan 2014-yil 22-avgust kuni ro'yxatga olingan, reyestrda tartib raqami 429-son, manzili: Toshkent viloyati, Bekobod shahri, Istiqlol ko'chasi, 20-uy;

"Ohangaronsement" aksiyadorlik jamiyati – Toshkent viloyati, Ohangaron shahar hokimligi huzuridagi tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyasi tomonidan 2014-yil 31-dekabr kuni ro'yxatga olingan, reyestrda tartib raqami 123-son, manzili: Toshkent viloyati, Ohangaron shahri, Sanoat hududi;

"Greatwall Ceramis Industries limited" mas'uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi qo'shma korxonasi – Farg'ona viloyati Adliya boshqarmasi tomonidan 2015-yil 13-iyulda 159-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan, manzil: Toshkent viloyati, Angren shahri, Ipak yo'li ko'chasi, 10-blok.

Uyushma — o‘z a‘zolarining manfaatlarini himoya qilish, faoliyatini muvofiqlashtirish va rivojlantirish, Uyushmaning ustavida belgilangan maqsadlarga erishish uchun birgalikdagi faoliyat asosida tashkil etilgan.

Uyushma — tijorat faoliyati bilan shug‘ullanmaydi hamda o‘z oldiga o‘zining faoliyatidan foyda olishni asosiy maqsad qilib qo‘ymaydi.

Respublikada qurilish materiallarini ishlab chiqarishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda xususiy sektordagi “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi a‘zolarining manfaatlarini ifoda etish va himoya qilishni ta‘minlash, shuningdek, qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish bo‘yicha Uyushmaning asosiy faoliyati quyidagilardan iborat.

Yuqori qo‘shilgan qiymatli qurilish mahsulotlarini ishlab chiqarish, ishlab chiqarish korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, shuningdek, ixtisoslashgan yetakchi xorijiy kompaniyalar bilan qo‘shma ishlab chiqarishlarni tashkil etish bo‘yicha yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni o‘zlashtirish uchun investitsiyalar, birinchi navbatda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish;

talab etilayotgan sifatli mahsulot ishlab chiqarish turlarini kengaytirish, ichki bozorni import o‘rnini bosuvchi va raqobatbardosh qurilish materiallari hamda mahalliy ishlab chiqarilgan buyumlar bilan to‘ldirish, shu bilan birga, tarmoqning eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi a‘zolari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash;

hududlarning salohiyatini yanada rivojlantirish istiqbollaridan, xom ashyo bazasi, infratuzilmalar, mehnat va boshqa resurslar hamda bozorlarning mavjudligidan kelib chiqqan holda korxonalarni joylashtirishga ko‘maklashish.

ichki va tashqi bozorlarda qurilish materiallariga bo‘lgan talab konyunkturasini o‘rganish va shu asosda yangi mahsulot turlarini o‘zlashtirishga ko‘maklashish, qurilish materiallari eksporti geografiyasini kengaytirish bo‘yicha o‘z a‘zolariga amaliy yordam ko‘rsatish, kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

o‘rta va uzoq muddatga mo‘ljallangan tarmoqni rivojlantirish dasturlarining ishlab chiqilishida va bajarilishida ishtirok etish, tarmoq tashkilotlariga xom-ashyoni chuqur qayta ishlashda, sifatli raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishning o‘zlashtirilishida va ichki bozorning ular bilan yanada to‘ldirilishida, mahsulotlar diversifikatsiyasining kengaytirilishida ko‘maklashish;

qurilish materiallari sohasida standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimini xalqaro talablar va standartlar bilan uyg‘unlashtirgan holda takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni qabul qilish;

xodimlarni tayyorlashning real ehtiyojlarini va istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlash, mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv dasturlarini takomillashtirishda ishtirok etish, qurilish materiallarining sanoat ishlab chiqarilishi sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini chuqurlashtirish;

qurilish materiallari sanoatining jadal rivojlanishiga va tarmoq korxonalarining barqaror faoliyat yuritishiga to'sqinlik qiluvchi tizimli muammolarni aniqlash va bartaraf etish, mazkur sohadagi qonunchilikni yanada takomillashtirishga doir takliflarni ishlab chiqish.

Bugungi kunda Respublikada 95 turdagi qurilish materiallari ishlab chiqarilmoqda, shundan so'nggi yetti yilda yaratilgan imkoniyatlar va yangi amalga oshirilgan loyihalar natijasida 46 turdagi mahsulotlarga bo'lgan ichki talab to'liq qoplanishiga erishilgan.

Istiqbolda loyihalar, mahalliy hokimliklar bilan birgalikda nafaqat hududning imkoniyati, balki Respublika talabini va eksport salohiyatini inobatga olgan holda shakllantirish nazarda tutilgan.

Yaratilgan imkoniyatlar hisobiga, so'nggi yetti yilda sohaga 8,6 milliard dollar investitsiya kiritildi.

Natijada 4 500 ta yangi korxona ishga tushdi (jami 15 mingta), 36 turdagi yangi mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Ishlab chiqarish hajmi 4 barobar o'sdi (o'tgan yili 34,2 trillion so'm), yillik daromadi 100 milliard so'mdan oshgan korxonalar 524 tadan 1824 taga ko'paydi.

Tarmoqdagi korxonalar hisobidan byudjetga tushum 2,2 barobar oshdi (2017-yildagi 1 856 milliard so'mdan 2023-yilda 4 102 milliard so'mga).

Mahsulotlarimiz eksport bo'layotgan davlatlar so'nggi uch yilda 2,2 karra oshib, 62 taga yetdi. Ishlab chiqarilayotgan 95 turdagi mahsulotning 90 turi eksport bo'lyapti. 2023-yilda qurilish materiallari eksporti 654 million dollarni tashkil etdi (2020-yilda 253 million dollar).

Natijada mazkur mahsulotlar importi 12 foizga qisqardi, eksport hajmi sezilarli darajada oshdi. Shu bilan birga ba'zi bozor to'yingan mahsulotlarga investitsiyalar kiritilib, quvvatlar ichki talabga nisbatan keskin oshib ketdi. Xususan, talabga nisbatan sement quvvatlari 2,3 barobarga, keramik plitka va keramogranit 1,5 barobarga, gipsokarton 1,2 barobarga, qurilish oynasi 100 foizga oshgan.

Qurilish vazirligi tomonidan jahon qurilish industriyasi va arxitektura rivojlanishi tendensiyalaridan kelib chiqib, har yilda uzoq va o'rta muddatda o'zlashtiriladigan yangi qurilish materiallari ishlab chiqariladi.

Shuningdek, qurilish materiallarini ishlab chiqarishda o'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan ehtiyojlarni aniqlash, ularni salohiyatini oshirish bo'yicha bir qator ishlar olib borilmoqda.

Uyushma soha konyunkturasini inobatga olgan holda ehtiyojni aniqlab, sohaga tegishli oliy va o'rta bo'g'in kadrlarni yetishtirib beradigan Toshkent arxitektura-qurilish universiteti va uning huzuridagi Urganch qurilish texnikumi va Qashqadaryo arxitektura va qurilish texnikumlarga 2024/2025 o'quv yili uchun qabul kvotalariga bo'lgan tegishli turli kasb va yo'nalishlarga 87 ta ehtiyojlar bo'yicha takliflarni taqdim etilgan.

Talabalarni ishlab chiqarish amaliyotlarini ishlab chiqarish korxonalari tashkil etish, ta'lim muassasalari bitiruvchilarining bandligini ta'minlash, uning

monitoringini yuritishda ta'lim muassasalari bilan barqaror axborot almashinuvini yo'lga qo'yish qo'yilgan.

Jumladan, joriy yil arxitektura-qurilish universiteti 65 nafar bitiruvchisi korxonalarga ("Qizilqumsement" aksiyadorlik jamiyati, "Ohangaronsement" aksiyadorlik jamiyati, "Kvars" aksiyadorlik jamiyati)ishga joylashtirilgan. Shuningdek, 47 nafar texnikum bitiruvchilari soha mutaxassisligi bo'yicha ish bilan ta'minlangan.

Shu bilan bir qatorda, olis hududlardagi texnikumlarda soha bo'yicha o'rta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlashda tarmoq ehtiyojlari, ish beruvchilar manfaatlarini inobatga olgan holda talaba yoshlarning, ayniqsa qizlarning kasb-hunar egallashida ularning kelajak hayoti, oila qurishi, ro'zg'or yuritishi, farzandini sog'lom va barkamol qilib voyaga yetkazishi kabi o'ta muhim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikdagi jami 2 ta ta'lim dasturlarini ishlab chiqilgan.

To'g'ridan-to'g'ri xalqaro investitsiya loyihalari ko'lami, yaratilayotgan ish o'rinlarining yangilangan malaka talablari asosida davriy ravishda takomillashtirib borish mexanizmini yaratish va joriy qilish, qurilish materiallari sohasida ehtiyojlar o'rganilib, 2 yangi ta "Shisha va shisha buyumlarni chiqaruvchi" va Asbosement buyumlar saralagich-namlagich (ajratuvchi-taxlovchi) kasblari bo'yicha kadrlar tayyorlash nazarda tutilgan hamda yirik investitsiya loyihalari tarkibiga hamkorlikda kadrlar tayyorlash komponentini kiritish nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, Germaniya Federativ Respublikasidagi Drezden texnika universiteti hamda Toshkent arxitektura-qurilish universiteti o'rtasida ilmiy va ta'lim sohasida amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yilgan. Xususan, oliygohning qurilish materiallari sohasida ilmiy izlanish olib borayotgan 5 nafar yosh olim va tadqiqotchilarini Drezden texnika universitetida stajirovkalarini o'tkazish, 7 nafar professor-o'qituvchilar malakasini oshirish hamda xalqaro grant va loyihalarni birgalikda amalga oshirish bo'yicha memorandum imzolanib, ijobiy kelishuvga erishilgan.

4. Tarmoqqa tegishli kasblar ro'yxati

Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025)ga muvofiq tarmoqqa Qurilish, uy-joy kommunal xo'jaligi va qurilish materiallari sanoati sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashiga tegishli kasblar ro'yxati quyidagi jadvalda keltiriladi:

T/r	Lavozim va kasblar kodi	Lavozim va kasblar nomi
1	11200017	Ilmiy-tadqiqot instituti direktori va o'rinbosarlari
2	13450009	Laboratoriya mudiri
3	11200015	Ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi bosh direktori va o'rinbosarlari
4	12230002	Bosh ilmiy xodim

5	11200007	Boshqaruv raisi va o'rinbosarlari
6	11200023	Korxona bosh direktori (boshlig'i, boshqaruvchisi) va o'rinbosarlari
7	11200049	Zavod, korxona direktori va o'rinbosarlari
8	11200009	Direksiya direktori va o'rinbosarlari
9	12190001	Aksiyadorlik jamiyatining boshqaruvi (direksiyasi) a'zosi
10	11200004	Birlashma boshlig'i (direktori) va o'rinbosarlari
11	12210006	Mahsulot marketingi va sotuvi sohasida departament (boshqarma) direktori (boshlig'i)
12	13212026	Qozonxona boshlig'i (direktori)
13	13460013	Sho'ba (sektor) mudiri
14	13211014	Bosh muhandis
15	12190009	Bosh inspektor
16	13211004	Bosh dispetcher (sanoatda)
17	13220016	Bosh texnolog (konchilik, qazib olish sanoatida)
18	13220055	Sex boshlig'i
19	12112012	Xo'jalik ishlari bo'lim boshlig'i (mudiri)
20	13220060	Smena boshlig'i (konchilik, qazib olish sanoatida)
21	13220062	Texnik rahbar (konchilik, qazib olish sanoatida)
22	13219015	Katta usta-xonalarni dezaktivatsiya qilish guruhi rahbari
23	21411004	Muhandis-texnolog (umumiy)
24	21411003	Ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha muhandis
25	21415007	Standartlashtirish bo'yicha muhandis
26	21414003	Sifat nazorati bo'yicha muhandis
27	13219017	Nazorat ustasi (sex, uchastka)
28	13212035	Uchastka ustasi (elektr ta'minoti, gaz, bug' va havo konditsionerlashda)
29	31151017	Texnik-texnolog
30	31159023	Texnik-nazoratchi
31	44199005	Texnik-inspektor
32	31159019	Sifat nazorati xizmati texnigi
33	31330002	Ishlab chiqarish laboranti
34	31152003	Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha texnik
35	51510006	Xo'jalik mudiri
36	14390029	Sinov laboratoriyasi mudiri
37	81211024	Shaxtali pechlar mashinisti (kuydiruvchi)
38	81319498	Usta yordamchisi
39	81142012	Asbestotsement listlarni to'liqinsimon qiluvchi
40	81142009	Asbestotsement buyumlarni qismlarga ajratuvchi
41	81149051	Tola hosil qilish qurilmasi operatori
42	81149053	To'liqinlovchi-stoplovchi agregat operatori
43	81819018	Devorbop buyumlarni ishlab chiqarishda boshqaruv pulti operatori
44	81811004	Shisha erituvchi
45	73159015	Shisha va shisha buyumlarni puflovchi
46	81814029	Shishani toblovchi
47	81319398	Shisha ishlab chiqarishda toblovchi

48	81814014	Shisha lentasini shakllantirish operatori
49	81814018	Shisha qoliplash dastgohi operatori
50	81149020	Sement soluvchi
51	81149019	Sement ishlab chiqarishda maydalovchi
52	81144003	Beton qorish qurilmasi motoristi
53	81720014	Qorishtirish agregati mashinisti
54	81219123	Quvur quyuvchi
55	81319464	Tegirmon (maydalash) mashinisti
56	81815008	Keramik buyumlarni quyuvchi
57	73163007	Qurilish keramikasini sirlovchi
58	81319357	Qorishtiruvchi
59	81121028	Quritish qurilmasi mashinisti
60	81829027	Quritish barabanlari o't yoquvchisi
61	81132001	Aylanuvchan pechlarda mashinist (kuydiruvchi) yordamchisi
62	81141008	Temir beton ishlab chiqarish jihozlarini boshqarish pulti operatori
63	81144005	Beton qorishtirish sexi operatori
64	81122025	Shlam nasoslari mashinisti
65	73139004	Kuydiruvchi
66	81811005	Suvi qochirilgan kvarsli shishani erituvchi
